

ONA TILI VA ADABIYOT FANIGA O'QUVCHILARDA QIZIQISH UYG'OTISHGA ZAMONAVIY METODLARNING AHAMIYATI

*Namangan viloyati Namangan tumani 2-sonli umumta'lim maktabi
ona-tili va adabiyot oqituvchisi
Abdullayeva Dilafruzxon Abdijabbarovna*

Annotatsiya. *Ona tili o'quvchini mustaqil fikrplashga, mulohazalarni og'zaki va yozma ravishda to'liq bayon qilishga o'rgatadi. Ushbu maqolada ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanib o'quvchilarini darsga qiziqishini orttirish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Ta'lism, pedagog, o'quvchi, metod, sayohat metodi, ilgor pedagogik texnologiyalar, ta'lism jarayoni.*

Til har bir millatning ko'zgusi, uning haqiqiy sarchashmasidir. Til bor ekan, millat barhayotdir. Tilni Onaga qiyoslanishi bejiz emas, inson o'z onasini ko'rmasdan, uning sof muhabbatini, mehrini tuymasdan yashay olishi mumkin emas. Ona tili – millatning ruhidir. Til — davlat timsoli, xalq mulki. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demak. Maktablarda ona tilimizning o'qitilishi, o'quvchilarning har tomonlama mukammal bilim olishlari uchun jiddiy e'tibor berish talab etilmoqda. Yangi darsliklar, turli fanlarga oid ko'rgazmalar va ko'rsatmali vositalar, elektron kitoblar hamda turli internet saytlari bunga yaqqol misol. Bularning barchasi ona tilimiz rivoji va yangi davr kishilarini shakllantirishga qaratilgan.

Ona tili o'quvchini mustaqil fikrplashga, mulohazalarni og'zaki va yozma ravishda to'liq bayon qilishga o'rgatadi. O'quvchining savodxonlik darajasini, uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni ona tilidan hosil qilingan bilim va malakalari asosiga quriladi. Ma'lumki, har bir milliy til o'zida moddiy olamni aynan, adyekvat aks ettirishdan tashqari ruhiy olamni, qayg'u-alamlari-yu shodliklarini ham o'rinda tugal ifodalaydi. Insonda har bir narsaga nisbatan o'z munosabatini bildirish imkoniyati bor va bu imkoniyat har gal tilning muayyan shakllari orqali yuzaga chiqariladi.

Ta'lism jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lism va tarbiya masalalari hal etiladi Hozirgi kunda ta'lism jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lган qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrplash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Ona tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish masalasini hal qilishda maktabda ona tilini o'rgatishga asos bo'ladigan material alohida qimmatga ega. Materialning g'oyaviy yo'naliishi va badiiy ifodaliligi o'quvchilarning fikrplash faoliyatiga, his-tuyg'ulariga ta'sir etadi, atrof-muhit haqidagi bilimlarini

kengaytiradi, tilga va uni yaratgan xalqqa qiziqishini tarbiyalaydi, o'quvchilarning umumiy taraqqiyoti darajasini o'stiradi va ularning shaxsiy sifatlarining, dunyoqarashlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ona tili darslarida o'quvchilarga beriladigan bilimlar keyingi yillarda asosan nazariy asosga qurilayotganligi amaliy malakalarning sayozlashuviga olib kelmoqda. Darsda asosano'r ganilayotgan qoidani yod oldirish va unga darslikdan misol keltirish va mashq ishslash bilan cheklanilmoqda. Dars davomida faqat darslik bilan ishlanmoqda. Oqibatda o'qituvchi darslik o'qituvchisi, o'quvchi darslik o'qituvchisi bo'lib qolmoqda. Shu sababli o'quvchilar darslikdan tashqari talablarni bajara olmayaptilar, hayotning o'zi misol va qoida ekanligini anglab yetmayaptilar. Shunday ekan, amaliy bilimi shakllantirish asoslarini ishlab chiqishga diqqat qaratish lozim. Buning uchun darsda faqat mashqlar bilan cheklanmay, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, lug'at ustida ishslashga o'rgatish, ularda to'g'ri talaffuz normalarini shakllantirish hamda fikrlash, tafakkur qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar berish kerak. Hozir o'quvchilarni har bir darsda faol ishtirok etishga undovchi noan'anaviy dars metodidan foydalanilyapti. Budars metodi hozirda turli joylarda o'zining ijobjiy ta'sirini ko'rsatyapti. Ona tili darslarida eng ko'p qo'llanadigan metod o'qituvchining bayoni metodi hisoblanadi. Bayon yordamida murakkabroq, ayniqsa, o'quvchilarga oldindan ma'lum bulmagan mavzular izohlanadi.

Ona tili fanini umumta'lim maktablarida o'qitilishiga e'tibor kuchaydi. Ona tilini o'qitishda darslikdagi ma'lumotlarni berish bilangina cheklanib qolish ta'lim sifatini ta'minlay olmaydi. Shuning uchun bugungi zamon pedagogi turli xil o'qitish usullari orqali o'quvchini mavzuga jalb etish va DTSdan ko'zlangan maqsadga yetishi lozim. Bu choratadbirlar o'qituvchilarning kasb mahorati va o'quv jarayoniga qo'shgan shaxsiy hissasi, ta'limning yuqori samaradorligi hamda sifati, o'z bilimini muntazam takomillashtirib borishi, kasb mahorati va malakasini o'stirishi, o'qituvchi tomonidan ilg'or metodlar va pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llashi uchun yaratilgan imkoniyatlar.

Ona tilidan o'rganiladigan material o'quvchilarga qisman oldingi sinfda tanish bo'lsa yoki yangi mavzu biror tomoni bilan oldin o'tilgan materialga bog'lansa, darsda suhbat metodidan foydalaniлади. Suhbat o'quvchilar faolligini oshiradi. Ular o'qituvchi rahbarligida berilgan dalillarni kuzatadilar, o'zaro qiyoslaydilar va muhokama qiladilar, so'ng umumlashgan xulosa chiqaradilar. Suhbat o'quvchilarning nutq madaniyatini o'stirishda muhim omillardan biridir. Suhbat 3 xil bo'ladi: axborot xarakteridagi suhbat, evristik suhbat, o'tilgan temani mustahkamlash maqsadida o'tkaziladigan suhbat. O'tilganlarni mustahkamlash darslarida ko'proq bir bo'lim o'rganilsa yoki chorak yakuni, yil yakunida, ko'proq o'quvchilarning o'zlarini ishlagan holda darslarni tashkil qilinadi.

Ona tili darslarini tashkil etishda "Fikrlarning tarmoqlanishi", "BBB", "FSMU", "Venn diagrammasi", "Charxpalak", "Tushunchalar tahlili", "Raqamlar so'zlaganda", "Baliq skleti", "Yelpig'ich", "Bumerang", "Zakovat", "Ha yoki yo'q", "Zinama-zina", "Sinkveyn", "SWOT" tahlili kabi innovatsion, noan'anaviy ta'lim metodlaridan foydalanish mumkin bo'lib, darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ularning ahamiyati katta. Bu kabi metodlarni har bir o'qituvchi o'zi dars beradigan o'quvchilarning xarakteri, iqtidori va qiziqishlaridan kelib chiqib o'ziga xos yo'nalishda tashkil etishi, o'zgartirishi, ijodiy rivojlantirishi yoki o'xshash variantlaridan foydalanishlari mumkin. Bir so'z bilan aytganda,

bunday o‘yinlar mavzularni o‘quvchilatga oson va tushunarli berishning yo‘llaridan biri hisoblanib, o‘qituvchi yangi-yangi ta’limiy o‘yinlarni darslarida qo‘llashi, hatto o‘zi ham shunday o‘yinlarni o‘ylab topishi mumkin. Zero, biz yangiliklar, axborotlar asrida yashayapmiz.

Umuman olganda, biz – yoshlar vatanimiz O‘zbekistonning qanotlarimiz. Bugun bizning oldimizda ona tilini o‘rganish borasida yagona to‘g‘ri yo‘l turibdi. Bizdan millatimizning beba ho boyligi, xalqimiz tafakkurining tengsiz javohiroti sanalgan o‘zbek tilini mukammal o‘rganishimiz, og‘zaki va yozma savodxonligimiz yuksak bo‘lishi talab etilmoqda. Yuqoridagilarni amalga oshirish uchun bizga kakografiya usuli kutilgan samarani berishi mumkin. Zero, davr o‘qituvchidan ham, o‘quvchidan ham izlanishni, yangiliklarni o‘zlashtirishni talab etmoqda.

Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o‘quvchi chetda qolmay, eshitgan, o‘qigan, ko‘rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar. O‘zaro fikr almashish jarayoni hosil bo‘ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o‘zaro do‘stona munosabatlar shakllanadi.

Shuni ta’kidlab o’tish kerakki, har bir darsda qanday metoddan foydalanish, darsda qanday usullarni qo‘llash o‘qituvchi tomonidan oldindan belgilab olinishi va puxta ishlab chiqilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2006 yil
2. I.Holmurodov. Ona tili fani bo‘yicha o‘quvchilarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish. «Til va adabiyot ta’limi» jurnali, 2006 yil, 2-son,
3. Umumi o‘rta ta’limning ona tili fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Toshkent-2017
4. T.T.Omonov, N.X.Xo‘jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov. —Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratl. Toshkent. —IQTISOD-MOLIYA 2009. 106-bet.
5. Ashrapova T. va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. T. «O‘qituvchi», 1984-yil. 102-103-betlar.